



O‘ZBEK PRAGMALINGVISTIKASI XUSUSIDA

Xaydarova Feruza

Jizzax politexnika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek tilshunosligidagi pragmalingvistika sohasining rivoji va so‘nggi yutuqlari haqida fikrlar bayon etilgan. Mazkur soha rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan olimlar tadqiqotlariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: pragmalingvistika, pressupozitsiya, diskurs, nutqiy aktlar, illokutivlik.

Abstract: The article describes the development and recent achievements of the field of pragmalinguistics in Uzbek linguistics. The researches of scientists who contributed to the development of this field are discussed.

Key words: pragmalinguistics, presupposition, discourse, speech acts, illocution.

Аннотация: В статье рассказывается о развитии и последних достижениях области прагмалингвистики в узбекском языкознании. Обсуждаются исследования ученых, внесших вклад в развитие этой области.

Ключевые слова: прагмалингвистика, пресуппозиция, дискурс, речевые акты, иллокуция.

Kirish. O‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda antropotsentrizm paradigmaning ta’siri barcha sohalarida namoyon bo‘la boshladi. Pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistikaga oid tadqiqotlarda antropotsentrik paradigma ustuvorligi yanada yuqori bosqichga ko‘tarildi. O‘zbek tilshunosligida tilni uning sohibi bo‘lgan inson va u mansub bo‘lgan millat madaniyati va dunyoqarashi bilan birga o‘rganilishi joizligi ilmiy tadqiqotlarda aks etgan ochiq haqiqatga aylandi. Ma’lumki, antropotsentrik paradigma tilni nafaqat struktura, balki kommunikatsiyaga asoslangan ochiq tizim sifatida o‘rganuvchi, uni jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat kabi boshqa tizimlar bilan aloqadorlikda tadqiq etuvchi, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yunaltirilgan ta’limotlar va usullar majmui hisoblanadi. Shu sababi jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda antropotsentrizm yo‘nalishi lisoniy tizimga lingvistik yondashuvning bosh mezonlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbek tilshunosligida tilshunoslikning asosiy sohalaridan biri bo‘lgan pragmalingvistikaga oid nazariy qarashlar ham muhim o‘rinni egallaydi. XX asrning so‘nggi choragidan boshlab o‘zbek tilshunosligida pragmalingvistik tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyoj sezila boshladi. Natijada tilshunoslikda sintaktik va semantik tadqiqotlar negizida pragmalingvistik yo‘nalishga ham asos solindi. Ushbu yo‘nalish asoschilari

sifatida A.Nurmonov va N.Mahmudovning pressupozitsiyaga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqotlarini keltirish o‘rinli bo‘lardi. Mazkur ishlarni tilning belgilar sistemasi ekanligi, inchunun, uning mohiyati va vazifasi mantiq ilmi bilan chambarchas bog‘liqlikda o‘rganilmog‘i zarurligi ta’kidlangan va ushbu jarayonni inson omili ishtirokisiz amalga oshirib bo‘lmasligi o‘z tasdig‘ini topgan tadqiqotlar sirasiga kiritish mumkin.

Asrimiz boshlariga kelib o‘zbek tilshunosligidagi pragmlingvistik tadqiqotlarning nazariy asoslari o‘zbek tilshunoslarining bir qator asarlarida o‘z aksini topdi. Jumladan, “O‘zbek pragmlingvistikasi asoslari” monografiyasida pragmlingvistikaning vujudga kelish jarayoni va nutqiy aktlar masalasi keng ko‘lamda tadqiq etilgan. Monografiya muallifining keyingi ishlarida mazkur sohaning rivoji va uning nazariy tomonlari ilmiy jihatdan to‘la asoslandi. Xususan, “Pragmlingvistika asoslari” nomli asarda nutqiy akt nazariyasining nazariyotchilari va shu yo‘nalishda qilingan ishlarning ilmiy xronikasi batafsil yoritib berildi. Pragmlingvistikaning asosiy tushunchalaridan bo‘lgan deyksis nazariyasi, implikatura birliklari, nutqiy akt nazariyasi, J.Ostin va J.Serl konsepsiyasining o‘ziga xos tasniflari, pragmlingvistika va tilning boshqa sathlari bilan o‘zaro bog‘liqlik masalasi, xususan, pragmafonetika, leksopragmatika, morfopragmatika, pragmasintaksis, pragmasemantik va pragmastilistik belgi va xususiyatlar haqida atroflicha fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, muallifning matn nazariyasiga oid qarashlari, ilmiy matnning pragmlingvistik xususiyatlari sifatida ilk bor qalamga olingan xususiy neytral va xususiy emotsional munosabat haqidagi fikr va mulohazalari o‘zbek tilshunosligida pragmlingvistik tadqiqotlarning rivojlanib borayotganligidan, shu bilan birga, yangidan-yangi tadqiqotlar uchun poydevor ko‘yilganidan dalolat beradi. Ushbu asarda prosodik vositalarning pragmatik vazifalari va xususiyatlari haqida ham dastlabki nazariy fikrlar ilgari surilgan.

O‘zbek tilshunosligida pragmlingvistikaning nazariyotchilaridan yana biri Sh.Safarov hisoblanadi. Olimning tadqiqot ishlarida, asosan, samarali muloqot kafolatining nazariy poydevorlari va uning bosqichlari ham g‘arbona, ham sharqona usullar asosida tadqiq etilgan. Muallifning deyksis masalasi hamda uning lingvistik va falsafiy chegara nuqtalari, inson tafakkurining borliqqa va u tuzayotgan muloqot matniga bo‘lgan munosabatida deyktik belgilarning roli haqidagi qarashlari diqqatga sazovordir. Ayniqsa, shaxs deyksisiga oid bildirilgan fikrlarda kishilik olmoshlarining xususiyatlari har bir millatning milliy tafakkur mezonida o‘lchanishi shartligi alohida ta’kidlanadi. Bu holat muloqot matnini interpretatsiya qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Shuni ham aytib o‘tish joizki, o‘zbek tilshunosligida mazkur ikki muallifgacha va undan keyin ham pragmlingvistika sohasida bir qator kichik, lekin anchayin salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Ular sirasiga U.Rahimovning yuklamalar pressupozitsiyasiga bag‘ishlangan kandidatlik dissertatsiyasini, A. Pardaevning “O‘zbek tili yordamchi so‘z turkumlarining lisoniy tizimdagi o‘rni va lingvopragmatik tahlili” nomli monografiyasini keltirish o‘rinli bo‘lardi. U.Rahimovning tadqiqotida yuklamalar pressupozitsiyasi, pressupozitsiya va tagma‘no o‘rtasidagi farqli hamda o‘xshash tomonlar yoritilgan bo‘lsa, A.Pardaev ishlarida

pragmatikaning stilistika bilan bog‘liq tomonlari haqida fikrlar bayon etilgan. Mazkur ishlar o‘zbek tilshunosligida pragmatika sohasining oyoqqa turishi va rivojida o‘zining ma’lum hissasini qo‘shganligi shubhasizdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Asrimiz boshlaridagi tadqiqotlar ichidan bolalar nutqini pragmalingsvistik tomondan o‘rganishga e’tibor qaratildi. Bolalar nutqiga ilk bor pragmalingsvistik yondashilgan mazkur ishda bolalar nutqiga xos nutqiy aktlarning ularning psixologik holatlari va yosh xususiyatlari bilan bog‘liq tarzda kechishi asoslangan. Tadqiqotda bolalar nutqidagi savol jummalarning ko‘p qo‘llanilishi ular olamiga xos bo‘lgan qiziquvchanlik, olamni bilishga intilish bilan belgilanishi ta’kidlab o‘tiladi. Muallif o‘z kuzatishlariga asoslangan holda bolalar nutqida keltiriladigan illokutiv aktlar sirasiga tasdiq, so‘roq, iltimos, buyruq, kechirim, istak, talab kabilarni kiritadi hamda ularda kattalar nutqida uchraydigan maslahat, kinoyaviy tasdiq, ogohlantirish, va’da aktlari kam uchrashini misollar bilan dalillaydi. Olima bolalar nutqidagi pragmatik to‘siqni ikki jihatdan farqlaydi:

1. Bolalar nutqida pragmatik to‘siqning yuzaga kelishi.
2. Bolalar tomonidan o‘zgalar nutqining pragmatik to‘siq sifatida qabul qilinishi.

Mazkur farqlanishda bolalar va kattalar nutqining leksik, ijtimoiy va kognitiv tomondan xoslanishi e’tiborga olingan. Ayniqsa, frazeologik birliklar bilan qo‘llangan nutq orqali pragmatik to‘siqning ko‘p uchrashi maktab yoshidagi bolalar nutqi orqali yoritib berilgani muammoni yoritishda psixologik va kognitiv yondashuvning pragmalingsvistik tadqiqotlar uchun nihoyatda muhimligini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Albatta, o‘zbek tilshunosligida yana bir qator ishlar mavjudki, ular u yoki bu darajada sohani yoritishga o‘z hissasini qo‘shgan. Biz tomonimizdan nomi zikr etilgan tadqiqotlar pragmalingsvistika sohasining o‘zbek tilshunosligidagi dastlabki bosqich rivojini belgilaydi desak, to‘g‘ri bo‘lardi. Hali bu sohada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar talaygina. Ayniqsa, muloqot nazariyasi va uning vujudga kelish qonun-qoidalarini pragmalingsvistik, psixolingsvistik va kognitiv bilimlar uyg‘unligida tadqiq etish, pragmalingsvistika bilan boshqa sohalarni, ayniqsa, bugungi kunda juda dolzarb bo‘lgan sotsiolingsvistika va psixolingsvistikaning uyg‘unligini ta’minlash va bu borada qilinadigan ishlarni rejasini tuzish sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asr oxirlarida o‘zbek tilshunosligida kognitiv tilshunoslikka oid qarashlar ham shakllana boshladi. “Kognitiv tilshunoslik” nomli tadqiqotda matnning yaxlitlovchi semantik strukturasini tashkil etuvchi andozalar (ongdagi) ssenariy, skript, freym, geshtalt, prototip va kategoriyalashtirish haqida nazariy fikrlar qayd etilgan. Muallifning lisoniy-kognitiv faoliyatning milliy-madaniy xususitlari haqidagi fikrlari til va madaniyat masalalarini yoritishda nazariy poydevor vazifasini o‘taydi. Shu bilan birga o‘zbek tilshunosligida mazkur yo‘nalishdagi ishlarning vujudga kelishiga turtki beradi. Til va madaniyat masalalarining bevosita til va tafakkur masalalari bilan uyg‘unlashishi o‘zbek milliy tilshunosligini bir daraja yuqori pog‘onaga ko‘tardi, deyish

Xulosa qilib aytganda, pragmalingsvistik tadqiqotlarda verbal kommunikatsiya shaxs xarakteri, maqsadi, millati, yoshi, jinsi kabi omillarga bog‘liq ekanligi o‘zbek tili materiallari misolida asoslab berilgan. Antropotsentrik paradigma o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotini ta’minlayotgan muhim omil sifatida boshqa paradigmalarni inkor etmagan holda hozirgi vaqtda keng miqyosda riojlanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маҳмудов Н. Прессупозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. – № 6. – Б. 28-31.
2. Нурмонов А. Кўмакчилик конструкциялар пресуппозицияси (-дан ташқари конструкцияси) // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. – № 6. – Б. 42-45;
3. Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. – Тошкент: Фан, 2013. – 262 б.
4. Раҳимов У. Ўзбек тилидаги юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. – 120 б.
5. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 б.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. – 285 б.
7. Қурбонова М. Ўзбек болалари нутқининг прагмалингвистик хусусиятлари. – Тошкент, 2018. – 160 б.
8. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри.. дисс. ... автореф., – Тошкент, 2018. – Б. 15-16.
9. Накимов М., Газиева М. Прагмалингвистика асослари. Дарслик. – Фарғ‘она, 2020. – 420 б.
10. Накимов. М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 172 б.